

## KINOYA, UNING TURLARI VA ESTETIK BAHOLASH MEZONLARI

Gulnoza Jumayeva

O‘zbekiston, Toshkent. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Adabiyotshunoslik fakulteti, o‘zbek adabiyoti ta’lim yo‘nalishi II kurs magistranti

### Anotatsiya

Kinoyaga insonlar boshqa birovni xafa qilmaslik yoki yumshoq masxara va tanqid orqali vaziyatni yumshatishda ishlatiladigan ritorik hiyla sifatida qarashgan. Bugungi kunda esa, bu termin asosan haqiqatning dushmanlik hodisalariga qarshi ularni masxara qilish orqali kurashishni ifodalaydi. Ta’sir qilishning shavqatsizligi, keskinligi anglangan holatda bu terminning o‘ziga xos xususiyatlaridan biridir. Inson qachondan boshlab kinoyani anglaydi, yoki voqeylikka bunday munosabat qilishni boshlaydi? Soha mutahasisslariga ma’lumki bolalar adabiyotida sarkazm, kinoyani uchratish birmuncha qiyin. Uchragan taqdirida ham uni o‘qigan bolalar buni samimiy va boricha qabul qilishadi. Sirtidan qaraganda kinoya shunchaki kulguni jiddiylik orqali ifodalash bo‘lib ko‘rinsa ham, odatda qahramon tilidan biror ijtimoiy yoki axloqiy muammoga nisbatan shikoyatni bayon qiladi va bu shikoyat bir voqea yo personajga nisbatan emas, jamiyatning butun boshli qatlamiga nisbatan zamon yo makonga bog‘lab ham berilishi mumkin. Kinoya o‘zining ifoda turi, ya’ni asardagi anlatish usuliga ko‘ra bir necha turlarga bo‘linadi. Har bir tur iodkorning o‘zigagina xos uslubi orqali bayon qilinadi. Garchi kinoyaning ifoda turi turli xil bo‘lsa ham, umumiy mohiyat o‘zgarmaydi. Adabiyotshunoslar asosan kinoyani katta uch turga bo‘lishadi:

-og‘zaki

-vaziyatli

-dramatik. Bundan tashqari Sokratik ironiya kabi boshqa turlari ham mavjud va har bir tur uslub jihatdan farqlansada ayni aniq maqsadni ifoda etadi. Bundan tashqari kinoya jamiyat yo alohida insonning estetik qarashlari real voqeylik bilan qarama-qarshi kelib qolgan vaziyatda vujudga keladi. Yuqorida aytilgani kabi, kinoya asosan norizolik paydo bo‘lganda ochiqdan-ochiq emas balki bilvosita bayon etiladi. Estetika va kinoyaning o‘zaro bog‘liqligini ijtimoiy turmush tarzda insonning jismoniy va ruhiy turmushiga oid qarashlari orqali ifodalash mumkin.



Kinoyaning o'ziga xos ravishda rivojlanish bosqichlari, estetik tushunchalar, qarashlar va qiziqishlar bilan bog'liq bo'lib, bu bog'liqlik insonning ijodiy faoliyati bo'lgan san'at va adabiyotga ham ta'sir o'tkazadi.

**Kalit so'zlar:** kinoya, ironiya, Sokratik ironiya, sarkazm, estetika, ko'chim, og'zaki istehzo, dramatik istehzo, vaziyatli istehzo, estetik psixologiya.

O'tgan asr adabiyotida ijtimoiy-siyosiy vaziyat tufayli voqealikka kinoyaviy yondashish, tishli xazillar bilan mohiyatni yashirish kuchaygani sabab soha vakillari uchun kinoyaning xarakterini o'rganish masalasi ham muhim masalalar qatoriga kirib qoldi. Kinoya, sarkazm, yumor kabi tushunchalar oddiy kitobxon uchun sinonim so'z kabi tuyulsa-da, adabiyotshunoslikda bular bir-biridan farqlanuvchi, terminlar hisobladi. Sharq she'riyatida "adabiyot bilimdoni" nomi bilan mashhur bo'lgan Atoullloh Husayniy o'zining "Badoyi' us-sanoyi" kitobida kinoyaga quyidagicha ta'rif beradi: "Kinoya. Ani ba'zilar irdof ham derlar va ul andin iboratdirkim, bir ma'noni anga lozim-u tobi ma'no uchun yasalg'an lafz ila ul tarzda ta'bir qilurlarkim, agar ul lafzning o'z yasog'in iroda qilsalar ham ravo bo'lur". Bunda Husayniy kinoyani so'zning ko'chma ma'no tashishi deya ta'riflaydi. Biroq, bu terminning ma'nosi faqat so'z tashiydigan ko'chma ma'nodan iborat degani emas, albatta. Badiiy adabiyotda kinoya uslubiy vosita sifatida asl ma'noga teskari tarzda qarshilik, norizo bo'lish, shikoyat yoki masxaralash kabi vazifalarni bajarib keladi va majoziy so'zlar yoki ohang orqali aks ettiriladi. Kinoya termini o'rnida ba'zi manbaalarda ironiya termini ham qo'llanganligini uchratishimiz mumkin. Ironiya qadimgi yunon tilida "do'stlik" deb tarjima qilingan. Ironiya atamasining o'zi dastlab hajviy dramaturg, "komediya otasi" nomi bilan ataluvchi Aristofan (mill.avv. 445-385) tomonidan qo'llanilgan bo'lib, uning asarlari bu atama paydo bo'lgani haqidagi birinchi saqlanib qolgan ma'lumotdir. Ironiyaga insonlar boshqa birovni xafa qilmaslik yoki yumshoq masxara va tanqid orqali vaziyatni yumshatishda ishlatiladigan ritorik hiyla sifatida qarashgan. Bugungi kunda esa, bu termin asosan haqiqatning dushmanlik hodisalariga qarshi ularni masxara qilish orqali kurashishni ifodalaydi. Ta'sir qilishning shavqatsizligi, keskinligi anglangan holatda bu terminning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Sarkazm yuzaki qaralganda kulguni ifoda etsada, hech qachon haqiqatda kulguli narsani ochish



maqsadida qo'llanilmaydi. Sarkazm ifodalashni istagan narsaga nisbatan shunchaki norizolik emas qisman nafrat bo'lganida kinoya o'zining "tishli" sokinligi va befarqligi bilan munosabat bildiradi. To'g'ridan- to'g'ri ta'siri tufayli kinoya jurnalistika, notiqlik va badiiy adabiyotga bir xilda xos bo'lgan fosh qilish shaklidir. Shu sabab ham ayniqsa, sisyosiy keskinliklar sharoitida keng qo'llaniladi. Sababi unda jiddiy ifoda shakli yoki tashqi ijobiy baho bilan qoplangan nozik masxara yoki salbiy hodisani ijobiy baho berish bilan uning kamchiligiga e'tiborni qaratish maqsadida ijobiy shaklda ochiqdan-ochiq soxta tasvirlash jihati mavjud. Kinoya va ironiya so'zlarini sinonim sifatida ishlatish qanchalik to'g'ri degan savolga esa, M.Sheraliyeva o'zining "Hozirgi o'zbek nasrida kinoya" nomli doktorlik desertatsiyasida quyidagicha javob beradi: "Terminning qo'llanishi haqida yuqorida tavsiflangan holatni hisobga olib biz ushbu tadqiqod doirasida "kinoya" istilohini "ironiya"ga to'la sinonim sifatida istifoda etamiz. Ya'ni u kontekstdan kelib chiqqan holda ham badiiy ko'chim turlaridan birini, ham muayyan nutqiy vaziyatda sub'yektiv munosabatni ifodalash shaklini, ham voqelikka g'oyaviy-hissiy munosabat turi yoki badiiylik moduslaridan birini anglataverishi mumkin". Bu ikki atamaning ayni ma'noda qo'llanishi haqida "Akademnashr" tomonidan 2010- yil chop etilgan "Adabiyotshunoslik lug'ati" kitobida kinoyaga ta'rif berilar ekan: "...hozirgi adabiyotshunoslikda ironiya termining muqobili sifatida faol qo'llaniladi. Ko'chim turi sifatida kinoya so'z yoki birikmaning asl ma'nosidan boshqa, teskari ma'noda qo'llash demakdir"<sup>1</sup>.- deya izoh beriladi. Kinoya so'zi o'rnida ironiya so'zi muqobil sifatida ko'riladi, ammo kinoyaviylik va kinoya terminlari o'zaro yaqin ma'no ifodalasa ham farqlanuvchi terminlardir. Kinoya ko'chimning bir turi bo'lib, so'zlanayotgan fikrga teskari fikrni, ro'y berayotgan holatga qahramon yo muallifning etirozini bildirsa, kinoyaviylik esa, muallif tomonidan butun asarga yoki uning ma'lum bir kichik qismiga, ba'zi xarakterlarga nisbatan kinoyaviy munosabatini bildiradi va asar qurilishini ham kinoyaviy uslubga mos tarzda yaratadi. Kinoyaviy munosabat ideal va ro'y berayotgan holat o'rtasidagi keskin nomuvofiqlikni anglashdan yuzaga keladi. Kinoyaning vazifasi faqatgina kulgu hosil qilishdan iborat bo'lmay vaziyatning ko'ringanidan jiddiy ekanligi, ba'zi hollarda fojeaviy ekanligini ham ajratib ta'kidlaydi. Masalan: kinoyada maquullash orqali inkor, yoki aksincha, rad qilish orqali tasdiq ifodalanashini mumkin.

<sup>1</sup> Д.Куронов, З. Мамажонов, Мералиева. Адабиётшunosлик луғати. Т.: Akademnashr, 2010.- Б. 131-132



Kinoyaviylik esa birgina voqelikka emas butun boshli asar va yoki qahramonga nisbatan ijodkorning tanqidiy qarashini bayon qiladi. Ilgari kinoyaviylik adabiyotda faqatgina latifa, hajviyot kabi kichik janrlarda ifodalangan bo'lsa, bugungi davrda asar tuzilishining butun qismida kinoyaviy munosabatning ahamiyati ortdi. Misol keltiradigan bo'lsak o'zbek adabiyotida Murod Muhammad Do'stning "Lolazor", Tog'ay Murodning "Ot kishnagan oqshom" asari boshdan-oyoq kinoyaviy munosabat ustiga quriladi.

Inson qachondan boshlab kinoyani angelaydi, yoki voqeylikka bunday munosabat qilishni boshlaydi? Soha mutahasisslariga ma'lumki bolalar adabiyotida sarkazm, kinoyani uchratish birmuncha qiyin. Uchragan taqdirida ham uni o'qigan bolalar buni samimiy va boricha qabul qilishadi. AQSH ning Oregon shtati Universiteti Amerika adabiyoti dotsenti Raymond Malevitz o'z o'rganishlaridan so'ng q uyidagicha xulosa qiladi. Uning fikriga ko'ra insonlar bolalik davridan yetuklik yoshida o'tish jarayonida o'zlari haqiqiy deb o'ylagan ko'plab narsalarning yolg'on ekanligi yoki o'ylaganlari qadar muhim emasligini anglashni boshlashadi. Bu esa, insonlarda avvalo shaxsiy qarashlariga nisbatan ironiyani paydo qiladi, shundan so'ng inson ongida boshqa vaziyatga ham shunday qarash shakllana boshlaydi. Dunyoni no'to'g'ri tushunishning minglab usullari bo'lgani kabi, istehzoni tushunishning ham turlari mavjud. R.Malevitz kinoyaning adabiyotda takroran uchrab turadigan asosiy uch guruhi mavjud deya quyidagilarni sanaydi:

- Og'zaki kinoya
- Dramatik kinoya
- Vaziyatli kinoya.

O'g'zaki kinoyaga qahramon tilidan aytilib, boshqa qahramon holati yo harakatiga ta'sir o'tkazish, qahramon xarakteri yo maqsadini bayon qilishda foydalanishni nazarda tutiladi. Bu odatda konteksdan anglashiladigan shavqatsiz masxara shaklida ham bo'lishi mumkin. Kinoyaning bu turi odatda dialog jarayonida namoyon bo'ladi: "Bir narsa deyishga ojizman... Biroq agar eshak chindan ham ma'rifatli bir eshak bo'lsa, nega bo'lmasin?" (A.Nesin "Sizning yurtigingizda eshak yo'qmi?" hikoyasidan. Dramatik kinoyaga esa o'quvchi qahramonning niyatini bilib turgan holda, personajning soxta harakatlari, maqsadini yashirish uchun so'zlaydiganlari, qiladiganlarini misol keltirish mumkin. Biz dramatik kinoya misollarini spektakllarda va teatr tomoshalarining boshqa shakllarida ko'proq topishimiz



mumkin. Masalan, Uygʻunning “ Parvona” nomli spektaklida tomoshabin Oʻtkuriyning asl maqsadini biladi, shu sabab uning harakatlaridagi istehzoni anglaydi. Hech qanday shoir ham boʻlmagan Nazokatni sevgan oshiq roʻlini oʻynaydigan va xotini uyda boʻlmaganida uning dugonasidan tortib yangasiga qadar gap otib, shilqimlik qiladigan, nomini Oʻtkuriy taxallusi bilan yashirgan qahramonning niyati xotining nomidagi uyni sotib, pullarini olib qochib ketish boʻladi. Maqsadiga erishguncha xotinini turli rom qiladigan gaplar bilan aldab, har qanday vaziyatdan chiqib keta oladi. Bu esa kulguli tuyuladigan jiddiy vaziyat hisoblanadi. Oʻquvchi yo tomoshabin bilgan haqiqat qahramonga ayon boʻlmagani sabab qahramon yomon ahvolga tushadi yoki xato qiladi ( Spektakldagi Nazokatning tushgan ahvolini misol keltirish mumkin). Vaziyatli kinoya deyilganda esa endi dramatik kinoyaga teskari tarzda voqeaning umuman kutilmagan yakuni, qahramonlar niyatlarining barbod boʻlishi, kutilgan natijaga teskari vaziyat yuzaga kelgani orqali vujudga keltiriladi. Vaziyatli kinoyani biz A.Nesinning :Qargʻalar saylagan podshoh” hikoyasida yaqqol uchratishimiz mumkin. Hikoyada bir kambagʻal odam doimo odamlarga yaxshilik qilish niyatida yurar ekan-u, biroq qanday yaxshilik qilishni bilmas ekan. Kunlarni birida bir togʻ tepasiga chiqib Yaratgandan insonlarga yaxshilik qilishni soʻrab duo qilibdi. Shunda bir moʻysafid unga: “Odamzodga yaxshilik qilish, yomonlik qilishdan koʻra mushkul ishdir. Dunyo bino boʻlgandan beri bu ishni uddalash juda oz insongagina nasib qilgan”- deb aytsa ham barbir fikridan qaytmaydi. Yaxshilik qilish umidida dunyo kezib yurganda bir mamlakatda podshoh saylash jarayonining ustidan chiqib qoladi. U yerdagi anaʼnaga koʻra osmondagi qargʻalar kimning boshiga uch karra axlatini tashlab ketsa, oʻsha odam podshoh boʻlardi. Qargʻalar uch marta ham shu kambagʻalni tanlashgach u podshoh boʻladi va ilk qiladigan ishi qargʻalarga minnatdorchilik sifatida mamlakatda ularga tosh otishni taqiqlaydi va hamma har kuni bir marta ularga don sepishi kerak boʻladi. Shunday qilib podshohdan yaxshilik koʻrgan qargʻalar har yil shu odamni saylayverishadi, podshoh ham ularga maqul qarorlarni qabul qilaveradi. Vaqt oʻtib toʻkin hayotdan qargʻalar koʻpayib, sigirday-sigirday boʻlib semirib ketishadi va takror aynan shu podshohni saylash uchun baravariga uning ustiga axlatlarini tashlashgach, podshoh qargʻalar axlatiga boʻkib oʻladi. Ammo adabiyotda tadqiqodchi olimlarning fikricha yana bir necha tur kinoyalar (ironiyalar) mavjud. Sokratik, tarixiy yoki kosmik kinoya kabi kinoyaning



boshqa turlari haqida eshitgan bo'lishimiz mumkin. Bu shakllar uslub jihatdan yuqoridagi 3 ta turdan pastki turlardir, biroq ularni bir-biridan farqlash foydalidir, sababi ular adabiyotning alohida janrlariga tegishli. Jahon adabiyotida yuqoridagilar bilan birga Sokratik ironiya termini mavjud bo'lib, bu kinoyaning chuqur tag ma'noli va keskinroq shakli sifatida qaraladi. Ba'zi manbaalarda ironiya atamasini estetik kategoriya sifatida shakllanishida yunon faylasufi Sokrat (Suqrot) asosiy ro'l o'ynagan deya ma'lumot beriladi. Sokratik ironiya haqida 2008-yilda The Oxford University Press jurnalida Simon Blackburnning "Socratic irony" (Sokratik istehzo) maqolasi chop etiladi. Unga ko'ra: Suqrot tinglovchisini maqtash yoki ularni haqorat qilish uchun o'zining ochiq ko'rinib turgan yuqori jihatlarini kamsitadi. Yani barchaga ayon bo'lgan qobiliyatini past baholash orqali qarshisidagi raqibini shavqatsizlarcha haqoratlaydi deb qaraladi. Buni qisqa qilib o'z-o'ziga kinoyachi bo'lish deya atalsa ham xato bo'lmaydi. Sokratik ironiya sezilarli darajada murakkab. Uni tariflaganda ichki norizolikka teskarisini bildirish uchun biror narsadan bexabar bo'lib ko'rsatish deya ifodalansa ham, Suqrot hech qachon bexabarlikni da'vo qilmaydi. Pluton asarlari orqali yetib kelgan dialoglarda Suqrot o'z suhbatdoshlarining taxminlarini keskin shubha ostiga olib, ularning fikrlarini boshqa tomonga yo'naltira olganini sezish mumkin. Sokratik ironiyani o'rganuvchi olimlar bu usul insonni umidsizlikka olib boradi deb o'ylashadi, chunki, Suqrotga ergshuvchilar o'z vaqtlarini boshqalarning pozitsiyalarini o'zgartirishga sarflashadi deb qaraladi. Kinoyaning bu turida asosan subyekt obyektga o'z johilligini tan oldirishga maqsadini qaratadi.

Sirtidan qaraganda kinoya shunchaki kulguni jiddiylik orqali ifodalash bo'lib ko'rinsa ham, odatda qahramon tilidan biror ijtimoiy yoki axloqiy muammoga nisbatan shikoyatni bayon qiladi va bu shikoyat bir voqea yo personajga nisbatan emas, jamiyatning butun boshli qatlamiga nisbatan zamon yo makonga bog'lab ham berilishi mumkin. Bunga misol sifatida mashhur turk yozuvchisi Aziz Nesinning "Bolalar qayerdan paydo bo'ladi?" hikoyasidagi quyidagi jumlagi qaraydigan bo'lsak: "Xotini bilan har yili bittadan bolani dunyoga keltirish qo'lidan keladi, xolos".-deya bosh qahramon tilidan, o'zi kichik korxonada ishlab, arzimagan oylikka kun ko'radigan akasining ta'rifi berilgan. Bunda yozuvchi o'z qahramoni zamonidan jamiyatdagi serfarzand oilalarda insonlar asosan bolalarini tarbiyalashdan ko'ra ularni boqish haqida ko'proq qayg'urishlari, hatto katta farzandlar o'zi go'dak



bo'la turib, uka-singillariga ota yo ona g'amxo'rliги bilan birga tarbiya berish majburiyatida qolishayotganligi, qahramonning o'zi obro'li joyda yaxshi haq evaziga ishlashiga qaramay hali o'zini ota bo'lish va farzand tarbiyalashga loyiq ko'rmayotgan bir paytda, insonlar bunday ma'suliyatli vazifaga qanday qilib bunchalik yengil qarashlarini tushunolmasligini ifodalaydi. Chuqurroq yondashilsa, bu mavzu butun boshli jamiyat yo millat avlodlari tarbiyasi haqida ekanligini ham anglash mumkin. Shakl jihatdan qaralganda kinoyaviy iboralar samimiy so'zlardan deyarli farq qilmaydi biroq intonatsiya, mimika yoki ro'y berayotgan voqeelikdagi vaziyat orqali uni farqlab olish mumkin.

Kinoya jamiyat yo alohida insonning estetik qarashlari real voqeelik bilan qarama-qarshi kelib qolgan vaziyatda vujudga keladi. Yuqorida aytilgani kabi, kinoya asosan norizolik paydo bo'lganda ochiqdan-ochiq emas balki bilvosita bayon etiladi. Estetika va kinoyaning o'zaro bog'liqligini ijtimoiy turmush tarzda insonning jismoniy va ruhiy turmushiga oid qarashlari orqali ifodalash mumkin. Kinoyaning o'ziga xos ravishda rivojlanish bosqichlari, estetik tushunchalar, qarashlar va qiziqishlar bilan bog'liq bo'lib, bu bog'liqlik insonning ijodiy faoliyati bo'lgan san'at va adabiyotga ham ta'sir o'tkazadi. Estetika tushunchasi olamni hissiy qabul qilish, idrok etishni taminlovchi qarashlar yig'indisi sifatida axloq, did, go'zallik, fojiviylik, xunuklik, hayolilik kabi kategoriyalarga tayanadi. Estetika psixologiya va sotsiologiya bilan bevosita bog'liq bo'lib, inson ruhiy olamidan kelib chiqqan holda jamiyat bilan o'zaro muloqot, munosabatlarni ham tadqiq etadi. Adabiyotning yangilanishi ham odatda estetik g'oyalarning yangilanishi bilan ro'y beradi. Butun dunyoda ma'rifatchilik adabiyoti, klassik adabiyot, modern yo post modern adabiyotning vujudga kelish omili ham estetik g'oya va qarashlarning o'zgarganligi bilan bog'liq. Kinoyaning estetik kategoriya sifatida baholanish mezonlari haqida fikr yuritar ekanmiz, estetikaning umumiy kategoriyalari o'zgaruvchan ekanligini ham inobatga olishimiz kerak bo'ladi. Estetik qarash nafaqat zamonning o'zgarishi bilan emas balki geografik joylashuv yo etnik kelib chiqishning farqlanishi bilan ham turlicha bo'lishi mumkin. Bu millatning diniy tushunchalari, tili va an'alarining saqlanib qolganligiga qarab malum darajadan keskinga qarab farq qiladi. Shu sabab kinoyani baholash va tushunish paytida yuqoridagi omillarni hisobga olish zarurati mavjud.



**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. M. Sheraliyeva. Hozirgi o‘zbek nasrida kinoya. Doctor of Philosoph disertatsiyasi
2. A. Husayniy. Badoyi’ us-sanoyi.-T.: Adabiyot va san’at, 1981.
3. Д.Куронов, З. Мамажонов, Мералиева. Адабиётшунослик луғати. Т.: Akademnashr, 2010.- Б. 131-132
4. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-k/kinoya-uz/>
5. <https://blog.alter.ru/psychotherapy/sarkazm-chto-jeto-takoe-i-dlja-chego-ljudi-ego-ispolzujut/#sarkazm-cto-eto-takoe-prostymi-slovami>
6. <https://www.culture.ru/s/slovo-dnya/ironiya/>
7. <https://liberalarts.oregonstate.edu/wlf/what-irony>
8. <https://writers.com/irony-definition>

